

“Local to Global” loyihasi doirasida “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ rezidentlariga nisbatan IT-sohasida eksport hajmini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qo‘llash to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevradagi “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-87-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Local to Global” loyihasining maqsad va vazifalarini, amalga oshirish tartibi va muddatlarini, shuningdek, “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ (keyingi o‘rinlarda – IT-Park) rezidentlarining ushbu loyihada ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Loyiha – “Local to Global” mahalliy bozor uchun IT-xizmatlar ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni xalqaro IT-bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha loyiha;

Veb-portal – Loyihada ishtirok etish uchun hujjatlarni yuklashga mo‘ljallangan IT-Parkning “www.my.it-park.uz” veb-sayti;

Ariza – Loyihada ishtirok etish uchun Veb-portal orqali onlayn taqdim etiladigan murojaat;

Ariza beruvchi – IT-Park rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar;

Direksiya – “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ;

IT-Park rezidenti – IT-Parkda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va Rezidentlarning yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

Ishtirokchi – arizasi Direksiya tomonidan ma‘qullangan ariza beruvchi;

Ekspert guruhi – IT-Parkning malakali mutaxassislaridan iborat tarkibda tashkil etiladigan organ;

Qo‘shimcha chora-tadbirlar – mazkur Nizomning 4-bandida nazarda tutilgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari;

Telegram-bot - <https://t.me/itpark> _ https://local2global_bot.

Veb-portal - <https://my.it-park.uz>

3. Loyihaning maqsadi - mahalliy bozor uchun IT-xizmatlar ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni xalqaro IT-bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Loyihaning vazifalari quyidagilardan iborat:

Xalqaro bozorlarga chiqish va taklif etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashda faol ko‘maklashish orqali dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va masofaviy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan IT-Park rezidentlarining eksport salohiyatini oshirish uchun IT-Park tomonidan imkoniyatlar yaratish;

IT-Park rezidentlari uchun IT-sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish va investitsiya muhitini yaxshilash, bu infratuzilmani rivojlantirish, ta‘lim va kasbiy dasturlarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi;

Eksport hajmini oshirish va yangi bozorlarga chiqish, shuningdek, IT-Park rezidentlari doirasida tegishli tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni nazarda tutgan holda, 2030-yilga borib IT-xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadiga erishish.

4. Loyiha doirasida IT-Park tomonidan rezidentlarga quyidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar taqdim etiladi:

eksport rejasini ishlab chiqish, istiqbolli xorijiy bozorlarni aniqlash va ularga chiqish talablarini o‘rgatish, mijozlarni topish, ular bilan muzokaralar olib borish, eksport hujjatlarini

rasmiylashtirish, xizmatlar amalga oshirilganidan keyingi bosqichdagi qo'llab-quvvatlash jarayonlarini tashkil etish yo'nalishlarida bepul maslahat (eksport mentoring) xizmatlarini ko'rsatish;

jahon bozoriga chiqish yo'nalishidagi xarajatlarning 50 foizgacha qismini mazkur Nizomning 5-bandida nazarda tutilgan chegaralangan miqdorlarda qoplab berish;

umumiy xodimlar sonining ko'pi bilan 50 foizi, lekin bir nafar xodim uchun bir kalendar yilda bir marotaba ro'yxati Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan (<https://it-istedod.uz> saytida keltirilgan) nufuzli xalqaro platformalar va ta'lim yo'nalishlarida o'qish xarajatlarining yarmini qoplab berish;

xodimlar malakasini oshirish maqsadida "Bir million dasturchi" loyihasi doirasidagi (<https://uzbekcoders.uz> saytida keltirilgan) nufuzli xalqaro ta'lim platformalarining eksport yo'nalishida talab yuqori bo'lgan onlayn o'quv kurslarida bepul o'qish imkoniyatini ta'minlash.

5. Jahon bozoriga chiqish yo'nalishidagi xarajatlarning qoplash doirasida ishtirokchilarning amalga oshirgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarining 50 foizigacha qismini qoplab berish quyidagi yo'nalishlar limitlari bo'yicha har kalendar yilda faqat bir marta amalga oshiriladi:

xorijiy ekspertlarning maslahat xizmatlari bo'yicha xarajatlarni qoplash foizi mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan qoidalar to'plami bo'yicha hisoblanadi. Bunda, ushbu xorijiy ekspertlar eksport masalalarida yoki mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish masalalarida maslahat xizmatlarini ko'rsatgan bo'lishi inobatga olinadi. Bundan tashqari, faqat maslahat xizmatlarining o'zi uchun xarajatlar - 10 ming AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda qoplanadi;

xalqaro ko'rgazmalar va konferensiyalarda ishtirok etish bo'yicha xarajatlarni qoplash foizi mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan qoidalar to'plami bo'yicha hisoblanadi. Bunda kompensatsiya faqat stend yoki tadbirda qatnashish uchun chiptalar to'loviga nisbatan qo'llaniladi - 5 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda;

xorijiy hamkorlar bilan biznes muzokaralar o'tkazish maqsadida ularning mamlakatimizga tashrifini tashkil etish uchun amalda eksport qilgan xizmatlari hajmiga mos ravishda 4-ilovaga muvofiq 20 ming AQSh dollari ekvivalentigacha bo'lgan miqdorda qoplanadi;

xorijiy davlatlarga xizmat safarlari, xususan transport va mehmonxona, bilan bog'liq xarajatlarni qoplash foizi 5 ming AQSh dollari ekvivalentigacha bo'lgan miqdorda mazkur Nizomning 3-ilovasida nazarda tutilgan qoidalar asosida hisoblanadi.

6. Qoplab berilishi belgilangan xarajatlar ariza taqdim etilayotgan kalendar yili ichida amalga oshirilgan bo'lishi lozim.

2-bob. Loyihada ishtirok etish shartlari va tartibi

7. Loyihada ishtirok etish uchun ariza beruvchi quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

Ariza beruvchi ariza topshirish paytida amaldagi IT-Park rezidenti maqomiga ega bo'lishi kerak;

Ariza beruvchi Direksiya bilan tuzilgan "IT-Park rezidentining faoliyati shartlari to'g'risida"gi shartnomada (omnaviy ofertada) nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq bajarishi va majburiy oylik ajratmalar bo'yicha qarzdorlikka ega bo'lmasligi kerak;

Ariza berish vaqtida ariza beruvchida inqirozlik (bankrotlik) yoki iqtisodiy nochorlik holati mavjud bo'lmasligi kerak;

Ariza beruvchi amaldagi yoki rejalashtirilgan eksport shartnomalariga ega bo'lishi yoki eksportga yo'naltirilgan biznes-rejasini taqdim etishi lozim.

8. Mazkur Nizomning 4-bandi ikkinchi xatboshisida belgilangan qo'shimcha chora-tadbirlar veb-portal va/yoki Direksiyaning ijtimoiy tarmoq va kanallarida e'lon qilib boriladi va ularga muvofiq qatnashmoqchi bo'lgan ariza beruvchilar alohida ro'yxatdan o'tadilar.

9. Xarajatlar Direksiya tomonidan qoplab berilishi uchun ariza mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq topshiriladi.

10. Mazkur Nizomning 4-bandi to'rtinchi va beshinchi xatboshisida belgilangan qo'shimcha chora-tadbirlar bo'yicha arizalar alohida Telegram-bot orqali topshiriladi.

11. Xarajatlarni qoplab berish uchun arizani ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ariza beruvchining shaxsiy kabineti (<https://my.it-park.uz>) orqali xabardor qilinadi.

12. Xarajatlarni qoplash, ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va shartnomalardan kelib chiqib qabul qilingan Ekspert guruhining qarori asosida amalga oshiriladi.

13. Ekspert guruhining ijobiy qaroriga muvofiq Ishtirokchining shaxsiy kabinetiga qaror bilan birga "Xarajatlarni qoplab berish to'g'risida shartnoma" loyihasi yuboriladi.

14. Loyihada ishtirok etish va arizalarni ko'rib chiqish uchun to'lov undirilmaydi.

15. Ariza beruvchi tomonidan xarajatlarni qoplash uchun taqdim etilishi shart bo'lgan hujjatlar:

a) Xorijiy ekspertlarning maslahat xizmatlari bo'yicha:

Maslahat xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi;

Xorijiy ekspertning eksport tajribasini tasdiqlovchi hujjatlar: ish tajribasi uch yildan kam emasligini tasdiqlovchi rezyume, xalqaro sertifikatlar, portfolio;

Ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida dalolatnoma va/yoki invoys;

Ariza beruvchining hisob raqamidan to'lovni tasdiqlovchi ko'chirma;

Xorijiy ekspert tomonidan xizmatlarni ko'rsatish natijasida tayyorlangan hujjatlar: bozor tadqiqotlari, eksport strategiyasi rejaları yoki hisobotlari, fotosuratlar, videolar, strategiyalar va harakatlar rejasi.

b) Xalqaro ko'rgazmalar va konferensiyalarda ishtirok etish bo'yicha:

Konferensiya/tadbirda ro'yxatdan o'tganlikni va ishtirokni tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar;

Konferensiya/tadbirda ro'yxatdan o'tish yig'imi to'langanligi to'g'risidagi kvitansiyalar yoki cheklar;

Kun tartibi yoki tadbir dasturi (bayon, sessiya, mahorat darslari va ishtirokchilar qatnashgan tadbirlarni batafsil tavsiflovchi rasmiy jadval);

Tadbir yakunlari bo'yicha hisobot: olingan bilimlar, o'rnatilgan aloqalar va potensial biznes imkoniyatlari, fotosuratlar va videolarning qisqacha bayoni;

Stend ijarasi shartnomasi va kvitansiya yoki cheklar.

d) Xorijiy hamkorlar bilan biznes-muzokaralar o'tkazish uchun mamlakatimizga tashriflarini tashkil etish bo'yicha:

Tashrifning maqsadi, sanasi va kun tartibi ko'rsatilgan holda xalqaro mehmonlarga yuborilgan rasmiy taklifnomalar;

Ariza beruvchining eksportidagi mehmonlarning ahamiyati haqida ma'lumot;

Mehmonlarning sayohati tashkil etilganligini tasdiqlovchi chiptalar band qilish (bron) kvitansiyalari va qo'nish talonlari;

Mehmonlarning O'zbekistonga tashrifi vaqtida taqdim etilgan yashash joyi bilan bog'liq hisob-kitoblar.

e) Xorijiy davlatlarga xizmat safarlari bo'yicha:

Safar yo'nalishi bo'yicha sayohatning batafsil jadvali, jumladan, sanalar, joylar va maqsadlar;

Xizmat safarlari davomida yashash bilan bog'liq hisobvaraqlar va kvitansiyalar;

Uchrashuv bayonnomasi/uchrashuvlar natijasi to'g'risidagi hisobot;

Xizmat safarlari bilan bog'liq aviachiptalar va qo'nish talonlari;

Xarajatlar to'g'risida batafsil hisobot;

Xizmat safarlari davomida imzolangan potensial eksport kelishuvlarini tasdiqlovchi bitimlar yoki anglashuv memorandumlari nusxalari;

Ariza beruvchi va safar uchun mas'ul bo'lgan shaxslar o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalari nusxalari;

Xorijiy hamkorlar yoki tashkilotlar bilan uchrashuvlar o'tkazilganligini tasdiqlovchi yozishmalar (agar kerak bo'lsa).

3-bob. Ekspertlar guruhi tomonidan arizalarni ko'rib chiqish tartibi

16. Loyiha doirasida xarajatlarni qoplash bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish uchun Ekspert guruhi IT-Parkning alohida buyrug'i bilan tuziladi.

17. Ekspert guruhi tarkibi ichki buyruq asosida tayinlangan olti nafar ekspertdan iborat.

Ekspert guruhiga IT-Park Rezidentlar va strategiya bo'yicha bosh direktor o'rinbosari raislik qiladi, u yo'qligida esa Ekspert guruhi rais o'rinbosariga mazkur vazifa yuklatiladi.

18. Ekspert guruhi tomonidan arizalar ko'rib chiqilishi uchun har chorakda kamida bir marta yig'ilish tashkil etiladi va yig'ilish natijasiga ko'ra xarajatlarni qoplash hajmini belgilash to'g'risida qaror qabul qilinadi.

19. Ekspert guruhi - arizalarni xarajatlar qonuniyligi va asosligi, moliyaviy hujjatlar loyiha talablariga muvofiqligi, ishlarning amalda bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligini, hujjatlarning aslligi, hujjatlarni taqdim etish muddatlariga rioya etilganligiga va boshqa qo'shimcha jihatlarni (zarurat tug'ilganda) tekshiradi.

20. Loyiha ishtirokchilarining xarajatlarini qoplash uchun hujjatlarni ko'rib chiqishda Ekspert guruhi ushbu Nizom hamda 2019-yil 15-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 589-son qarori bilan tasdiqlangan "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom normalariga amal qiladi.

21. Ariza to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan yoki talab qilinayotgan ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, Ekspert guruhi arizani ko'rib chiqishni rad etishga yoki qayta ishlashga yuborishga haqli.

22. Ekspertlar guruhi tomonidan arizalarni ko'rib chiqish muddati Direksiya tomonidan arizalar yuborilgan vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) ish kunidan oshmasligi lozim.

4-bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

23. Ishtirokchining huquqlari:

Ariza beruvchi o'z arizasini u berilgan vaqtdan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida qaytarib olish;

Loyiha doirasida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan, qabul qilingan qarorlardan norozi bo'lgan taqdirda, Ekspert guruhi va boshqa vakolatli organlarning qarorlari ustidan Shaxsiy kabinetiga xabar kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida shikoyat qilishdan iborat.

24. Ishtirokchining majburiyatlari:

O'z vaqtida hisobot va tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

Mazkur Nizom hamda 2019-yil 15-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 589-son qarori bilan tasdiqlangan "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom normalari talablariga rioya qilish;

IT-Park tomonidan qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida xabardor qilinganda, talab qilingan hujjatlarni taqdim etishdan iborat.

25. IT-Parkning huquqlari:

Ishtirokchilar tomonidan Loyihada ishtirok etishning barcha shartlari bajarilishini, shu jumladan, taqdim etilgan hisobotlar, moliyaviy hujjatlarni tekshirish va majburiyatlarga rioya etilishini tekshirish;

Loyihada ishtirok etish, shu jumladan, ishtirok etishni ma'qullash yoki rad etish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda, ushbu Nizom va boshqa normativ hujjatlar normalariga muvofiq ishtirok etish shartlarini o'zgartirish;

Ishtirokchilardan ularning faoliyatini baholash, majburiyatlarni bajarish va Loyiha shartlari bajarilishini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish;

O'z vakolati doirasida loyihada ishtirok etishning qo'shimcha talablari va shartlarini belgilash, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga va loyihaning ehtiyojlariga muvofiq loyiha shartlari va qoidalariga o'zgartirishlar kiritish;

Loyihada ishtirok etish shartlari bajarilishini baholash va monitoring qilish, shuningdek, zarur tavsiyalar va xulosalar olish uchun uchinchi tomorni, shu jumladan, ekspertlar va maslahatchilarni jalb qilish;

Ishtirokchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar, qalbaki hujjatlar taqdim etilganligi yoki ma'lumotlar buzilganligi bo'yicha fakt aniqlangan taqdirda, ishtirokchi tomonidan loyihaga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

Shaffoflikni oshirish va jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida, loyiha, uning ishtirokchilari va erishilgan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish, bunda maxfiylik talablarini hisobga olish;

Loyihada ishtirok etish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ishtirokchilarga maslahatlar va tavsiyalar berish, shu jumladan, hujjatlar va hisobotlarni tayyorlashda yordam berishdan iborat.

26. IT-Park majburiyatlari:

Ishtirokchilarning arizalarini ko'rib chiqish va belgilangan muddatlar va tartib-taomillarga muvofiq ishtirok etish, xarajatlarni qoplash va qo'shimcha chora-tadbirlarni qo'llash masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish;

Loyiha shartlarining ishtirokchilar tomonidan bajarilishini baholashga va Nizom talablariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan muntazam monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish;

Ishtirokchilarga loyihada ishtirok etish qoidalari, Nizom va boshqa me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar, shuningdek, qo'shimcha chora-tadbirlar va xarajatlarni qoplab olish imkoniyatlari va shartlari to'g'risida to'liq ma'lumot berish;

Loyihani amalga oshirish, zarur hujjatlarni taqdim etish va talablarga rioya qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha loyiha ishtirokchilariga yordam va maslahatlar berish;

Loyiha ishtirokchilari bilan xarajatlarni qoplash shartlari va tartibini belgilaydigan shartnomalar tuzish, shuningdek, shartnomalarda belgilangan barcha shartlarga rioya qilish;

Ishtirokchilarning faoliyatini tekshirish natijalari davomida paydo bo'lgan qo'shimcha talablar, Ekspert guruhi qabul qilgan qarorlarni bajarish bilan bog'liq yoki qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida ishtirokchilarni xabardor qilish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va loyihada ishtirok etish hamda xarajatlarni qoplashni tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshirishdan iborat.

27. Ekspertlar guruhi huquqlari:

Ishtirokchilarning arizalarini ko'rib chiqish natijasida ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilish huquqiga ega;

Xarajatlarni qoplab berish foizini belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi;

Ishtirokchi tomonidan ushbu Nizomda belgilangan shartlar va majburiyatlar buzilgan taqdirda, Ekspert guruhi ishtirokchini loyihada ishtirok etishdan bir tomonlama chetlashtirish huquqiga ega.

5-bob. Javobgarlik

28. Ishtirokchi tomonidan ushbu ariza doirasida taqdim etilgan barcha hujjatlar ishonchli, haqiqiy va loyihada ishtirok etish uchun belgilangan talablarga muvofiq taqdim etilganligini tasdiqlaydi.

29. Noto'g'ri ma'lumotlar, qalbaki hujjatlar taqdim etilganligi yoki ma'lumotlar buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, ariza beruvchi va/yoki ishtirokchi:

- Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'liq javob beradi.
- Takroran ishtirok etish huquqsiz loyihaning ishtirokchilari safidan darhol chiqariladi.
- Loyihaga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi (agar u mavjud bo'lsa).

30. Ariza berilganligining tasdig'i ishtirokchining yuqorida ko'rsatilgan shartlarga to'liq roziligini bildiradi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

31. Ariza beruvchilar va Ishtirokchilarda savollar paydo bo'lgan taqdirda loyiha sahifasida ko'rsatilgan Telegram-bot orqali bog'lanishlari va qo'llab-quvvatlash xizmatidan foydalanishlari mumkin.

32. Ushbu Nizom loyiha ishtirokshilarining ehtiyojlari va taqdim etilgan mexanizm samaradorligi tahlili natijalariga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi mumkin.

“Local to Global” loyihasi doirasida
IT-Park rezidentlariga nisbatan
IT-sohasida eksport hajmini
oshirishga qaratilgan qo‘shimcha
qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini
qo‘llash to‘g‘risidagi
NIZOMga
1-ILOVA

**Xarajatlarni Direksiya tomonidan qoplab berilishi uchun arizani topshirish va ko‘rib
chiqish
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Arizachi	<p style="text-align: center;">Ariza topshirish</p> <p>Xarajatlarni qoplash uchun arizani my.it-park.uz portalidagi Ariza beruvchining shaxsiy kabineti orqali beradi. Buning uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shaxsiy kabinetga kirib, “Local to Global” tugmasini bosishi va “Xarajatlarni qoplash uchun ariza berish” sahifasida tegishli yo‘nalishni tanlashi lozim; 2. Tanlangan yo‘nalish sahifasida keltirilgan ko‘rsatmalarga rioya qilishi va mazkur Nizomning 15-bandida keltirilgan tegishli hujjatlarni veb-portalda ajratilgan maxsus maydonlarga joylashtirishi lozim. 	Zarur bo‘lgan hollarda
2-bosqich	Direksiyaning mas’ul bo‘limi	<p style="text-align: center;">Ariza va taqdim etilgan hujjatlarni Direksiya tomonidan dastlabki tekshiruvi</p> <p>Ariza va yuklangan hujjatlarni to‘g‘riligiga va talablarga mos ravishda taqdim etilganligini tekshiradi.</p>	Arizalar kelib tushgan vaqtdan boshlab 5 (besh) ish kunida

Direksiya tomonidan ariza va taqdim etilgan hujjatlarni Ekspert guruhiga taqdim etilishi			
3-bosqich	Direksiyaning mas'ul bo'limi	<p>To'g'ri va talablarga mos ravishda taqdim etilgan arizalar Ekspert guruhiga ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun taqdim etiladi. Loyihada ishtirok etish uchun qabul qilingan ariza beruvchilar "ishtirokchi" maqomiga ega bo'ladilar.</p>	Tekshiruv natijasiga ko'ra

Ariza va taqdim etilgan hujjatlarni Ekspert guruhi tomonidan ko'rib chiqilishi va natijasi yuzasidan qaror qabul qilish			
4-bosqich	Ekspert guruhi	<p>Arizalarni quyidagi jihatlar bo'yicha tekshiradi: xarajatlar qonuniyligi va asosliliigi, moliyaviy hujjatlar loyiha talablariga muvofiqligi, ishlarning amalda bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligini, hujjatlarning aslligi, hujjatlarni taqdim etish muddatlariga rioya etilganligiga va boshqa qo'shimcha jihatlarini (zarurat tug'lganda) tekshiradi.</p> <p>Va:</p> <p>a) Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlanganda, shuningdek, majburiy ma'lumotlarda qalbaki (noto'g'ri) ma'lumotlar topilganda, arizani rad etadi yoki uni qayta ishlash uchun qaytaradi. Bunday holda, arizani qayta yuborish vaqti ko'rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi.</p> <p>b) Ilova qilingan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgan va to'liq bo'lgan taqdirda, xarajatlarni qoplab berish to'g'risida qaror qabul qiladi.</p>	15 (o'n besh) ish kuni mobaynida

5-bosqich	Natijalar haqida xabardor qilish		
	Direksiyaning mas'ul bo'limi	Xarajatlarni qoplab berish uchun arizani ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ishtirokchilar shaxsiy kabinet orqali xabardor qilinadi.	5 (besh) ish kuni mobaynida
6-bosqich	Xarajatlarni qoplash to'g'risida shartnoma tuzish		
	Direksiyaning mas'ul bo'limi	Ariza ma'qullangan taqdirda, ishtirokchi bilan xarajatlarni qoplash to'g'risida shartnoma tuziladi va pul mablag'lari ishtirokchining bank hisob raqamiga o'tkazib beriladi.	Xarajatlarni qoplash to'g'risidagi shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida

“Local to Global” loyihasi doirasida
IT-Park rezidentlariga nisbatan
IT-sohasida eksport hajmini
oshirishga qaratilgan qo‘shimcha
qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini
qo‘llash to‘g‘risida
NIZOMga
2-ILOVA

Xorijiy ekspertlarning maslahat xizmatlari bo‘yicha qoidalar to‘plami

№	Hisobot yilida jami daromad	Foiz
1	5,000,000,000 so‘m dan baland	15%
2	2,000,000,000-5,000,000,000 so‘m	20%
3	500,000,000 - 2,000,000,000 so‘m	25%
4	0 - 500,000,000 so‘m	30%

№	Dasturda ishtirok	Foiz
1	Dasturda ilk ishtirok	10%
2	Takroriy ishtirokchi	0%

№	Konsalting xizmatlarining dolzarbligi	Foiz
1	Past dolzarblik	0%
2	O‘rtacha dolzarblik	2%
3	Eksport faoliyati uchun juda dolzarb	5%

№	Konsultantning tajribasi va malakasi	Foiz
1	Mahalliy maslahatchilar	0%
2	Mintaqada tan olingan ekspertlar	2%
3	Xalqaro tan olingan ekspertlar yoki firmalar	5%

№	Konsalting loyihasi hajmi	Foiz
1	“Kichik qamrov (bitta bozor yoki masalaga yo‘naltirilgan)”	0%
2	O‘rtacha qamrov	2%
3	Xalqaro tan olingan ekspertlar yoki firmalar	5%

№	Avvalgi eksport tajribasi	Foiz
1	Tajribali eksportyorlar (Oxirgi hisobot yilida daromadning 50% dan ortig'i eksportdan olingan)	0%
2	O'rta eksport tajribasi (Oxirgi hisobot yilida eksportdan olingan daromad umumiy daromadning 20% dan 50% gacha bo'lgani)	5%
3	Eksport tajribasi kam yoki yo'q (Oxirgi hisobot yilidagi daromadning 20 foizidan kamrog'i eksportdan olingan daromaddir)	10%
№	IT-PARK tomonidan o'tkaziladigan eksportga oid seminarlarda ishtirok etish	Foiz
1	Ishtirok etmadi	0%
2	IT-PARK eksport seminarlari yoki treninglarida qatnashgan	15%

“Local to Global” loyihasi doirasida
IT-Park rezidentlariga nisbatan
IT-sohasida eksport hajmini
oshirishga qaratilgan qo‘shimcha
qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini
qo‘llash to‘g‘risida
NIZOMga
3-ILOVA

**Xalqaro ko‘rgazmalar va konferensiyalarda ishtirok etish hamda xorijiy davlatlarga
xizmat safarlari bo‘yicha qoidalar to‘plami**

№	Hisobot yilida jami daromad	Foiz
2	5,000,000,000 so‘m dan baland	15%
4	2,000,000,000-5,000,000,000 so‘m	20%
3	500,000,000 - 2,000,000,000 so‘m	25%
1	0 - 500,000,000 so‘m	30%
№	Dasturda ishtirok	Foiz
1	Dasturda ilk ishtirok	10%
2	Takroriy ishtirokchi	0%
№	Eksport bozori salohiyati	Foiz
1	Yangi bozorga kirish	10%
2	Bozor ulushini kengaytirish	5%
№	Avvalgi eksport tajribasi	Foiz
1	Tajribali eksportyorlar (Oxirgi hisobot yilida daromadning 50% dan ortig‘i eksportdan olingan)	0%
2	O‘rta eksport tajribasi (Oxirgi hisobot yilida eksportdan olingan daromad umumiy daromadning 20% dan 50% gacha bo‘lgani)	5%
3	Eksport tajribasi kam yoki yo‘q (Oxirgi hisobot yilidagi daromadning 20 foizidan kamrog‘i eksportdan olingan daromaddir)	10%
№	IT-PARK tomonidan o‘tkaziladigan eksportga oid seminarlarda ishtirok etish	Foiz
1	Ishtirok etmadi	0%
2	IT-PARK eksport seminarlari yoki treninglarida qatnashgan	15%

“Local to Global” loyihasi doirasida
IT-Park rezidentlariga nisbatan
IT-sohasida eksport hajmini
oshirishga qaratilgan qo‘shimcha
qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini
qo‘llash to‘g‘risida
NIZOMga
4-ILOVA

Loyiha (Local to Global) doirasida xorijiy hamkorlar bilan biznes muzokaralar o‘tkazish maqsadida ularning mamlakatimizga tashrifini tashkil etish bo‘yicha IT-Park rezidenti bo‘lgan tashkilotlarning 50 foizgacha xarajatlarini qoplash

MIQDORLARI

№	Loyiha doirasida ishtirok etadigan IT-Park rezidentining amalda eksport qilgan xizmatlari hajmi	Qoplab beriladigan xarajatlari miqdori
1	200 ming AQSh dollari va undan yuqori ekvivalentda	20 ming AQSh dollari ekvivalentida
2	150 ming AQSh dollaridan 200 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda	15 ming AQSh dollari ekvivalentida
3	100 ming AQSh dollaridan 150 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda	10 ming AQSh dollari ekvivalentida
4	50 ming AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda	5 ming AQSh dollari ekvivalentida

№	Hisobot yilida jami eksport	Foiz
1	\$200 000 +	15%
2	\$150 000- \$200 000	20%
3	\$100 000- \$150 000	25%
4	\$50 000- \$100 000	30%

№	Dasturda ishtirok	Foiz
1	Dasturda ilk ishtirok	10%
2	Takroriy ishtirokchi	0%

№	Eksport bozori salohiyati	Foiz
1	Yangi bozorga kirish	10%
2	Bozor ulushini kengaytirish	5%

№	IT-PARK tomonidan o‘tkaziladigan eksportga oid seminarlarda ishtirok etish	Foiz
1	Ishtirok etmadi	0%
2	IT-PARK eksport seminarlari yoki treninglarida qatnashgan	20%

